

ZOOMORF IBORALARDA LINGVOMADANIYATNING AKS ETISHI

Fayzullayeva Nilufar Otabekovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti I kurs magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zoomorf frazeologizmlarning lingvomadaniy va geografik xususiyatlari, xususan, "tuya" obrazining frazeologik birliklardagi aks etishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turli tillardagi "tuya" komponentli frazeologizmlar qiyosiy o'rganilib, ularning semantik, stilistik hamda geografik jihatlari tahlil qilinadi. "Tuya" obrazi ko'proq cho'l va yarim cho'l hududlariga xos bo'lgan xalqlarning tilida faol qo'llanilishi, bu esa ularning hayot tarzi, tabiiy muhit va iqtisodiy faoliyat bilan bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, ushbu frazeologizmlarda xalqning mentaliteti, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashi qanday aks etishi ilmiy-nazariy asosda izohlanadi. Maqola etnolingvistika, frazeologiya, madaniyatshunoslik va geografik tilshunoslik uchun dolzarb bo'lib, til va madaniyatning mintaqaviy xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, lingvomadaniyat, tuya, oq tuya, lingvokulturologiya, zoomorf, zoomorf frazeologiya, zoonim, zoomorflar, zoofrazeologizm.

Abstract:

This article analyzes the linguistic and cultural, as well as geographical features of zoomorphic phraseological units, with a specific focus on the representation of the image of the "camel" in phraseological expressions. The study compares the "camel"-based phraseological units in different languages, examining their semantic, stylistic, and geographical aspects. It reveals that the image of the "camel" is more actively used in the languages of peoples living in desert and semi-desert regions, which is closely linked to their way of life, natural environment, and economic activities. Furthermore, the article provides an academic explanation of how the mentality, cultural values, and worldview of these peoples are reflected in these phraseological units. This article is relevant for ethnolinguistics, phraseology, cultural studies, and geographical linguistics, contributing to a deeper understanding of the regional characteristics of language and culture.

Keywords: phraseology, linguistic and cultural studies, camel, white camel, linguoculturology, zoomorphism, zoomorphic phraseology, zoonym, zoomorphs, zoophrazeologism.

Аннотация:

В данной статье анализируются лингвокультурные и географические особенности зооморфных фразеологических единиц, в частности, представление образа «тучного верблюда» в фразеологических выражениях. В ходе исследования проводится сравнительный анализ фразеологизмов, содержащих компонент «верблюд», на разных языках, рассматриваются их семантические, стилистические и географические аспекты. Устанавливается, что образ «верблюда» наиболее активно используется в языках народов, проживающих в пустынных и полупустынных районах, что связано с их образом жизни, природной средой и экономической деятельностью. Также в статье дается научное объяснение того, как менталитет, культурные ценности и мировоззрение этих народов отражаются в этих фразеологических единицах. Статья актуальна для этнолингвистики, фразеологии, культурологии и географической лингвистики, она способствует более глубокому пониманию региональных особенностей языка и культуры.

Ключевые слова: фразеология, лингвокультура, верблюд, белый верблюд, лингвокультурология, зооморфизм, зооморфная фразеология, зооним, зооморфы, зоофразеологизм.

KIRISH

Inson va hayvonot olami munosabati tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lib, tilning leksik fondidagi zoonim komponentli iboralar guruhini shakllantirgandir. Frazеologiyada hayvon nomlari qatnashgan iboralarni o'rganuvchi soha **zoomorf frazeologizm** yoki **zoomorfizm** deb ataladi. Bu yo'nalish hayvonlarga oid obrazlar orqali inson xatti-harakatlarini ifodalovchi frazeologik birikmalarni o'rganadi. Zoomorf – (yun. zōon – hayvon, morphē – shakl) hayvon shakliga oid yoki hayvon obraziga asoslangan tushuncha. Tilshunoslikda inson yoki boshqa ob'ektlarni hayvonlarga o'xshatib ifodalovchi lingvistik birliklar bilan bog'liq. Zoomorf frazeologiya – frazeologiyaning hayvon nomlari qatnashgan barqaror iboralarni o'rganuvchi tarmog'i. Bu yo'nalish frazeologik birliklarda hayvon obrazlari orqali milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va dunyoqarash qanday aks etishini tahlil qiladi. Zoonomik frazeologik birlik – tarkibida hayvon nomlari (zoonimlar) ishtirok etadigan barqaror iboralar. Bunday frazeologizmlar metaforik ma'noga ega bo'lib, inson xatti-harakati yoki holatini ta'riflash uchun ishlatiladi. Zoonim – hayvonlarning nomini bildiruvchi leksik birlik. Ular turli xalqlarning tilida har xil semantik yuklamaga ega bo'lib, frazeologizmlar va metaforalarda keng qo'llaniladi. Masalan, bo'ri, ilon, tuya kabi so'zlar zoonim hisoblanadi. Zoofrazeologizm – hayvon nomlarini o'z ichiga olgan va muayyan ma'noga ega bo'lgan barqaror frazalardir.

Ular inson xarakteri, jamiyatdagi munosabatlar yoki hayotiy holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Tuya” zoomorfining o‘zbek tili frazalarida o‘rnashib qolish sababi xalqimiz geografik hududi, diniy dunyoqarashi va madaniy o‘ziga xosligidan kelib chiqqan va aynan shu jihat lingvomadaniyshunoslik fanini qiziqtiradi. Zoomorf frazalar antroposentrik xususiyat bilan xarakterlanadi. Har bir xalqning tili uning madaniyati, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xususan, o‘zbek tilidagi ko‘plab iboralar xalqning hayoti va dunyo haqidagi qarashlarini aks ettiradi. “Inson dunyoni uning madaniyati va tili orqali, xususan, madaniyatning ajralmas qismi sifatida tasavvur qiladi” (Makovskiy M.). Tuya qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklarning hayotida muhim o‘rin egallaganligi sababli, bu hayvon bilan bog‘liq iboralar ham ko‘plab qo‘llaniladi. Biz ushbu maqolada “Nonni tuya qilmoq”, “Tuyaning dumi yerga tegganda”, “Oq tuya ko‘rdingmi” va “Tuya hammomni orzu qildi” kabi iboralar lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qildik.

Nonni tuya qilmoq – birovga tegishli bo‘lgan narsadan boshqa birov o‘ziga tegishli bo‘lmagan ulushni olishga harakat qilishi; Biror narsani isrof qilmaslik, qadrlash. Bu ibora xalqning non va umuman oziq-ovqatni muqaddas deb bilishidan dalolat beradi.

Tuyaning dumi yerga tegganda – kamdan-kam hollarda sodir bo‘ladigan voqeani tasvirlash. Bu ibora uzoq kutilgan, lekin deyarli imkonsiz voqealarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Oq tuya ko‘rdingmi? – juda kam uchraydigan yoki deyarli imkonsiz narsani anglatadi. Xalq orasida “oq tuya” kamdan-kam uchraydigan hodisalarga ishora qiladi.

Tuya hammomni orzu qildi – tabiatan sahro hayvonining o‘z yashash muhitini orzu qilishini tasvirlab, insonning o‘z ildizlariga qaytishga bo‘lgan ehtiyojini ifodalaydi.

Til va madaniyat o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, har bir iborada xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixi aks etadi. Tuya bilan bog‘liq iboralar turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek xalqi orasida sabr, bardosh, chidamlilik, nodirlik va ehtiyotkorlik kabi tushunchalarni ifodalab kelgan. Masalan, “Nonni tuya qilmoq” iborasi o‘zbek xalqining nonni muqaddas bilishi va uni qadrlash an‘analaridan kelib chiqadi. “Tuyaning dumi yerga tegganda” va “Oq tuya ko‘rdingmi” iboralari esa noyob va deyarli imkonsiz hodisalarga ishora qiluvchi ramzlar hisoblanadi. “Tuya hammomni orzu qildi” iborasi esa inson tabiatan o‘z ildizlariga intilishini, o‘zining tabiiy muhitiga qaytishga moyilligini bildiradi. Tuya bilan bog‘liq iboralar o‘zbek xalqining turmush tarzi va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu iboralar xalq donishmandligining yorqin namunasi bo‘lib, ular orqali sabr, chidamlilik, hayotiy tajriba va qadriyatlar ifodalanadi. Lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, bu iboralar xalq mentaliteti va urf-odatlarini tushunishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Rivoyatlar,

matallar, folklor namunalari har bir xalq lingvokulturologiyasining o'rganishi kerak bo'lgan obyektidir. Tilimizdagi bunday iboralar nafaqat tarixiy meros, balki kelajak avlod uchun ham ibrat manbai bo'lib qoladi. Oq tuya bilan bog'liq rivoyatlar ko'plab xalqlarning madaniyatida uchraydi va ularning aksariyati sabr, bardosh, omad yoki kamdan-kam uchraydigan voqealarga ishora qiladi. Bu rivoyatlar vaqt o'tishi bilan xalq og'zaki ijodida turli iboralarga aylanib ketgan. Ba'zi sharq xalqlari rivoyatlarida oq tuya juda noyob va mo'jizaviy hayvon sifatida tasvirlanadi. U faqat tanlangan odamlargagina ko'rinadi va unga duch kelgan kishi katta omadga ega bo'lishi aytiladi. Bu rivoyatdan kelib chiqib "Oq tuya ko'rdingmi?" iborasi kelib chiqqan bo'lib, u juda kam uchraydigan, deyarli imkonsiz hodisalar haqida kinoya bilan aytilgan va aynan shunday hayotiy hodisalar xalq og'zaki tilidan lingvomadaniyatshunoslikka ko'chib, mustahkam o'rnashib qolgan. Qolaversa, ko'chmanchi xalqlar orasida oq tuya sabr va bardosh timsoli hisoblangan. Bir rivoyatga ko'ra, uzoq davom etgan qurg'oqchilik paytida oq tuya paydo bo'lib, u keltirgan yomg'ir tufayli yerlar yashnagan. Shu sababli oq tuya uzoq kutilgan yaxshilik va sabr-toqat bilan bog'langan. "Tuyaning dumi yerga tegganda" iborasi ham shu mazmundan kelib chiqib, uzoq kutilgan, deyarli imkonsiz holatlarga ishora qiladi. Ba'zi rivoyatlarda oq tuya tanlangan hayvon sifatida talqin qilingan. U paydo bo'lsa, xalq uchun yaxshi kunlar kelishi kutilgan. Ammo vaqt o'tishi bilan oq tuyaning ko'rinishi insonlar uchun hayratlanarli va kam uchraydigan holat sifatida talqin qilingan. Shundan kelib chiqib, "Oq tuya ko'rdingmi?" iborasi noyob hodisalar uchun ishlatiladigan iboraga aylangan va o'zbek tilshunosligidagi lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilingan.

"Tuya hambomni orzu qildi" iborasi ham paydo bo'lish ildiziga egadir. Xalq og'zaki ijodiga oid bir rivoyatda oq tuya bir odamga tushida ko'rinib, uni uzoq yurtlarga olib ketgan va eng katta orzularini ro'yobga chiqarishga va'da bergan. Ammo uyg'onganida u faqat sahroda yotganini ko'radi va tushining ro'yobga chiqmasligini tushunadi. Shu sababli "Tuya hambomni orzu qildi" iboralari insonning o'z imkoniyatlaridan ortiq narsani xohlashini yoki haqiqatga zid orzular qilishini ifodalash uchun ishlatiladi.

Xalq geografik hududi, dini, madaniy urf-odat va dunyoqarashi o'sha xalq tiliga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi va natijada zoomorf frazeologizm kabi lingvomadaniy birliklar vujudga keladi. Har bir xalqning frazalarida keluvchi zoomorflar turli xil bo'lib, lingvomadaniyshunoslikda farqlilikni yuzaga keltiradi.

Masalan, ingliz tilida "Tuya dumi yerga tegganda" iborasining ekvivalenti sifatida kelgan quyidagi frazada "Tuya" predmeti emas, balki "Cho'chqa" predmeti qo'llangan va noyob va kam uchraydigan hodisa ma'nosini anglatgan: "When pigs fly" – ("Cho'chqa uchganda"). Bu ibora deyarli imkonsiz narsalarni tasvirlash uchun ishlatiladi. O'zbek tilidagi "Oq tuya ko'rdingmi?" iborasiga ham o'xshash bo'lib, kam uchraydigan yoki deyarli bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealarga nisbatan ishlatiladi;

- Rus tilida: "Когда рак на горе свистнет" – ("Qisqichbaqa tog'da hushtak chalganda"). Bu ibora ham nihoyatda kam uchraydigan yoki imkonsiz hodisalar uchun ishlatiladi. O'zbek tilidagi "Tuyaning dumi yerga tegganda" iborasiga o'xshash;
- Arab tilida: "رؤية العنقاء" – ("Simurg'ni ko'rmoq"). Bu ibora arab xalqlari mifologiyasidagi afsonaviy qush – Simurg'ni anglatadi va nihoyatda kam uchraydigan voqea yoki mavjud bo'lmagan narsani tasvirlash uchun ishlatiladi;
- Fransuz tilida: "Chasser la chimère" – ("Kimera ortidan quvmoq") Bu ibora haqiqatdan juda uzoq bo'lgan orzular yoki imkonsiz narsalarni quvish haqida gap ketganda ishlatiladi. O'zbek tilidagi "Tuya hammomni orzu qildi" iborasiga yaqin;
- Turkiy xalqlarda: "Devenin beli bükülmez" – ("Tuya beli egilmaydi"). Qadimdan "Tuya" turkiy xalqlar orasida qadrlangan. Turk tilidagi frazalarda ham shu boisdan saqlanib qolgan bo'lib, sabr va bardosh, chidamlilikni anglatgan;

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologik birliklar har bir xalqning tili va madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularda milliy dunyoqarash, tarixiy an'analar va hayot tarzi aks etadi. Tadqiqot davomida "tuya" obrazi ishtirok etgan frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatdiki, bu hayvon cho'l va yarim cho'l mintaqalari aholisi uchun nafaqat transport va xo'jalik obyekti, balki sabr-toqat, chidamlilik, mustahkamlik ramzi sifatida ham qabul qilingan va til birliklariga ham ko'chgan. Xulosa qilib aytganda, "tuya" obrazi qatnashgan frazeologizmlar nafaqat til birliklari, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasini ifodalovchi muhim manbalardir. Ular insonning dunyoqarashi, ijtimoiy hodisalarga munosabati va hayot falsafasini aks ettiradi. Shuningdek, bu kabi iboralar lingvistik va etnografik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, tilning madaniy kontekstini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Zoomorf iboralar tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir til va madaniyatda hayvonlarga oid tasavvurlar alohida semantik yuklama kasb etadi. Ushbu iboralar faqatgina til vositasi bo'lib qolmay, balki xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va tarixiy tajribasini ham aks ettiradi. Masalan, turkiy tillarda arslon kuch, jasorat va mardlik ramzi bo'lsa, qoplon chaqqonlik va epchillik bilan bog'lanadi. G'arb madaniyatida esa tulki ayyorlik, sichqon esa qo'rqqonlik timsoli sifatida ko'proq ishlatiladi. O'rganish jarayonida aniqlanishicha, zoomorf iboralar milliy madaniyat va folklor bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning qo'llanilishi va semantik tahlili lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, ba'zi iboralarning globalizatsiya ta'sirida o'z ma'nolarini o'zgartirishi yoki yo'qolib borishi kuzatilmoqda. Xususan, o'zbek tilida an'anaviy iboralar yangi so'zlashuv shakllari bilan boyib, ba'zan esa eskirganlari iste'moldan chiqib ketmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zoomorf iboralar lingvistik boylikning muhim qismi bo'lib, ularning kelib chiqishini, mantiqiy asoslarini va ma'no o'zgarishlarini o'rganish

tilshunoslik uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda yanada kengroq tahlillar o‘tkazish, turli madaniyatlarda bir xil hayvonlar bilan bog‘liq iboralarni solishtirish va ularning semantik o‘zgarishlarini chuqurroq tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Саидова Мухаббатхонб, Кузиев Умиджон. Лингвокультурология (Услужбий кулланма). Наманган – 2017.
2. Sharipov, Sh. (2015). O‘zbek tilida frazeologizmlar va ularning semantik tahlili. Toshkent: Fan.
3. Rasulov, O. (2019). Zoomorf frazeologizmlarning madaniy konnotatsiyasi. Xalqaro lingvistika anjuman materiallari, Samarqand, 78–83.
4. Nurmatova, D. (2020). O‘zbek va ingliz tillarida hayvonot dunyosiga oid frazeologizmlarning qiyosiy tahlili. Filologiya masalalari, 10(2), 33–47.
5. Karimov, A. (2021). Zoomorf metaforalar va ularning lingvomadaniy talqini. Til va adabiyot jurnali, 8(3), 45–58.
6. Muhitdinov, D. (2023). Zoonimik komponentli frazeologik birikmalarning tahlili. O‘zbek davlat jahon tillari universiteti ilmiy jurnali, 10(2), 45–56.
7. Salimova, Z. R. (2023). Turk tilida zoofrazeologik birliklar vositasida inson obrazini yaratish. Toshkent sharqshunoslik universiteti ilmiy maqolalar to‘plami, 7(3), 78–85.
8. Fozilov, M. M. (2023). Ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonimik komponentlarning o‘xshashliklari va farqi. Guliston davlat universiteti ilmiy jurnali, 5(1), 34–42.
9. Mamatov, A., & Jabborova, A. (2023). Frazeologizmlarning antropotsentrik lingvomadaniy tadqiqi. Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali, 11(4), 112–125.
10. Pirmaxmatov, Sh. A. (2023). O‘zbek tili va boshqa tillarning zoonimik frazeologik birikmalari xususiyatlari. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy jurnali, 8(2), 57–65.
11. Maxmudova, S. K., Fayzullayeva, N. O. (2023). National features of phraseological expressions. Bukhara State Pedagogical Institute Scientific Journal, 6(2), 89–97.